



# TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-21, (September) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

**XAKIMOV Erkin Abdixalilovich**  
**ABROROV Shaxboz Negmat o'gli**  
**XAYITOV Laziz Millionerovich**  
**ZUVAYTOV Shoxrux G'ayrat o'gli**  
*Samarqand davlat tibbiyot universiteti*  
*Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy*  
*markazining Samarqand filiali*

## KOMBUSTIOLOGIYADA VAKUUM TERAPIYANING YANGI USULLARI

### *Dolzarbligi*

Kuyishlarni davolash muammosi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Buni zamonaviy travmatizm deb atash mumkin. Kuyish kasalligi kechishining og'irligi aholi zich joylashgan shaharlarda davolash qiyinligi bilan, ko'p sonli salbiy oqibatlar va o'lim ko'rsatkichini ortib borishi bilan alohida o'rin tutadi.

Tananing kuyishi uchun bemorlar asosan alangadan jarohat oladi. Tana yuzasi 10-30%, IV darajali bo'lgan chuqur kuyishlar og'ir toksemiya, septik asoratlar natijasida, o'lim darajasi yuqori bo'ladi.

Qo'llarida chuqur kuyishi bilan og'rigan bemorlarni davolash va ularni kuzatish katta qiyinchiliklar tug'diradi, chunki qo'l anatomik jihatdan murakkab va juda muhim ishchi organi hisoblanadi. Kuyishdan keyingi jarrohlik yo'li bilan davolashda kontraktura va deformatsiyalarni bartaraf etish, shuningdek ayniqsa estetik tomondan yuqori qiyinchiliklar tug'diradi.

Nogironlikning asosiy sabablari bemorlarda mehnat qobiliyatini yo'qotish holatlari (48,5%) qo'lning chuqur kuyishidan kelib chiqadi. Chunki qo'lning orqa qismida kontrakturalar rivojlanadi, bu esa ko'p jihatdan anatomik buzilishlarga va fiziologik cheklanishlarga olib keladi.

### *Tadqiqot maqsadi*

Vakuum terapiyani jarrohlik va hujayra texnologiyalari bilan birga qo'llash yordamida, kuyish kasalligi va uning oqibatlarini davolashda, yangi usullarni ishlab chiqish va takomillashtirish.

### *Material va usullar*

Tadqiqot RSHTYoIM Samarqand filiali kombustiologiya bo'limida 2022-2023 yillar davomida davolangan 14 ta bemorlarda olib borildi. Bemorlar 2 guruhga bo'lib olindi.

- Birinchi guruhga tananing chuqur kuyishi, kuyish maydoni 10-25% ni tashkil etgan 25 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan 7 ta bemor olindi.

- Ikkinchi guruhga 30 yoshdan 57 yoshgacha bo'lgan turli xil yuzalardagi kuyishlari va kuyishdan keyingi chandiqli deformatsiyalari bor 7 ta bemor olindi. Ikkala guruhdagi bemorlarni xirurgik davolashda va bog'lamlarini almashtirishda quyidagi tibbiy jihoz va birlamchi bog'lov materiallaridan foydalanildi.

Kerlix AMD Dokasi va Suprasorb vakuum tizimi sumkasi, Lohmann & Rauscher'dan CNP EasyDress, atravmatik "Branolind N" yoki "Voskopran" yara qoplamasi ishlatildi.

### *Natijalar*

Hozirgi vaqtda turli xil etiologiyali va lokalizatsiyadagi kuyish jarohatlari bilan og'riqan bemorlarni vakuum terapiyasi usuli bilan davolash standart bo'lib, tegishli jarrohlik muolajalar, antibakterial terapiya va erta rehabilitatsiya choralari bilan birgalikda, Kerlix AMD Dokasi va Suprasorb vakuum tizimi sumkasi, Lohmann & Rauscher'dan CNP EasyDress, atravmatik "Branolind N" yoki "Voskopran" yara qoplamasidan foydalanish bemorning erta rehabilitatsiya va mehnat qobiliyatini tiklashga yordam berdi.

### *Xulosa*

Taqdim etilgan klinik holatlarda, vakuum terapiyadan va hujayra terapiyasidan foydalanish yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Jarrohlik usullarini takomillashtirish orqali vakuum va hujayra terapiyasi yordamida kombustsiologiyada davolash sezilarli darajada yaxshilanishi isbotlandi, davolash natijalarini yaxshilashda vakuum terapiyasini qo'llash orqali tana yuzasidagi kuyishlar, kuyishdan keyingi jarohat va chandiqli deformatsiyalarni erta davrlarda keyingi asoratlarsiz tuzalishiga erishildi.